

O'RTA GURUHDA BOLALARNING NUTQINI TO'G'RI SHAKLLANTIRISHGA YORDAM BERUVCH MILLIY O'YIN VA MASHQLAR

*Qashqadaryo viloyati Kasbi
tumani 1-son DMTT psixologi
Salomova Mohichehra Komilovna*

Annotatsiya

Maqolada o'rta guruh bolalarini nutqini to'g'ri shakllanishida ajdodlarimiz tomonidan bizga meros bo'lib kelgan turli xil milliy o'yinlar va didaktik mashqlarning uslubiy jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy o'yinlar, Rolli o'yinlar, Xalq o'yinlari, Didaktik o'yinlar va mashqlar.

NATIONAL GAMES AND EXERCISES THAT HELP TO PROPERLY FORM CHILDREN'S SPEECH IN THE MIDDLE GROUP

Annotation

The article highlights the methodological aspects of various national games and didactic exercises inherited from our ancestors for the correct formation of the speech of children in the middle group.

Keywords: National games, Role-playing games, Folk games, Didactic games and exercises.

O'yinlar xalq pedagogikasining tarbiya vositasidan biri hisoblanadi. Asrlar davomida o'yinlar rivojlanib, yangilanib kelmoqda. O'yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga yetishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Milliy o'yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira, diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilmi yanada kengayib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida milliy o'yinlar faoliyatidan to'g'ri va unumli foydalanish, har bir o'tkaziladigan mashg'ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida o'yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband - ijroli, harakatli, ta'limiy, musiqiy-ta'limiy kabi yo'nalishda olib boriladi. Milliy o'yinlar bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun tarbiyachi o'yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. O'yin mashg'ulotlaridan voqeaband - ijroli o'yinlar orqali bolalar tafakkuri kengayadi va qiziqishlari rivojlanadi. Rolli o'yinlar orqali bolalarga ularni qurshab turgan kishilarning kundalik hayoti, o'zaro munosabatlari, turmush kechirish yo'sinlari bilan tanishib boradi. Bolalar hamisha

kattalarga taqlid qilishadi, qo'g'irchog'ini erkalayotgan qizcha onasining so'zini takrorlaydi, qo'g'irchog'ini beshikka belab alla kuylaydi, mana shu birgina o'yin orqali unda oila sharoitidagi ko'nikmalar hosil bo'layotganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan tashqari «Shifokor», «Sartaroshxona», «Do'konda», «Quruvchilar», «Tikuvchilar», «Bog'cha», «Maktab - maktab» kabi o'yinlar orqali maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar qalbida kasbga qiziqish, faollik, o'zgalarga mehnatiga hurmat, ahil va inoqlilik, shirinsuhanlik kabi hislatlar o'stirib boriladi.

Harakatli milliy o'yinlar bolalardan epcillikni, chaqqonlikni, diqqatni bir joyga jamlashni, sezgirlikni talab kiladi. Xalq o'yinlaridan «Ismingni eslab qol», «Ko'z bog'lagich», «Oq terakmi, ko'k terak», «g'ozlar», «Qushim boshi», «To'p-tosh», «Jami» o'yinlari orqali bolalarda harakat faoliyati rivojlantirilib boriladi, mustaqil faoliyati, jismoniy quvvati oshirilib, o'zligiga ishonch ruhi o'stirib boriladi.

Eshitish va ko'rish a'zolarini faollashtirish uchun «Xilini top», «Qaysi daraxtning mevasi?», «Nimaning pati», «Mevasini top», «Onasini top», «Mevalar va barglar», «Domino», «Yovvoyi va uy hayvonlari», «Ishlash uchun nima zarur», «Bu uycheda qanday hayvon yashaydi», «Bu kim yoki nima?» singari o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bolaning mashg'ulotlar jarayonida olgan iqtisodiy bilimi, tushuncha va tasavvurlarini mustahkamlashda, chuqurlashtirish va kengaytirishda milliy o'yinlarning o'zni benihoyadir. Pedagog bolalar o'yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining barcha jihatlariga: ongi, his-tuyg'ular, irodasi, xulqiga ta'sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan ham shuningdek, iqtisodiy tarbiyalashda ham foydalanish lozim. Shunda o'yinlar natijasida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. Quyida o'rta guruh bolalari uchun milliy o'yin ishlanmalaridan namunalar keltirilgan.

1. «FABRIKA» o'yini. Ekskursiya. Jihoz: Kiyim-kechaklar, «yorliqlar, rasm-qalam, qog'oz, rasmlı kartochkalar. Yangi so'zlar: Iqtisod. yorliq, mukofot, maosh, boshqaruv, narx, vaqt. Maqsad: Boshqaruv haqida bilim berish, sifatdi va sifatsiz mahsulotlar, unga sarflangan vaqt haqida, xazina, maosh, narx haqida tushuncha berish, fabrika belgisini o'rgatish.

Mashg'ulotning borishi: U yerning direktori va sex boshliqlari bo'ladi. Qizlar o'tirib, qo'g'irchoqlarga ko'ylaklar tikadilar, Sex boshlig'i ularning bajargan ishlarini ko'rib sifatli va sifatsizga ajratadi-di» Shuncha ko'ylakcha tikdingiz» deb maosh to'lanadi Pichilgan va tikilgan ishlar alohida joyga qo'yiladi. «Tayyorlariga fabrika nomi yozilgan yorliqlar qo'yib tikiladi va sotish uchun bog'cha bozoriga chiqariladi. Qancha ko'p va tez sotilsa, ishchilar mukofot oladilar.

2. «DO'KON» o'yini. Didaktik vazifasi: sotib olish zarur bo'lgan narsani tasvirlashga o'rgatish, xushmuomala bo'lishga, bir-birga e'tiborli bo'lishga do'kondagi muomala normasi, xushmuomalalik bilan so'rashish, rahmat aytish.

O'yin qoidasi: tasvirlanishiga qarab, sotib olinadigan buyum topish, kim birinchi bo'lib topsa, o'sha narsani sotib olishga boradi, xarid qilingan o'yinchoqlarni keyin bolalar o'ynaydi.

O'yin harakatlari: Topishmoq aytish, topish, sotish va sotib olish. O'yinning borishi: Tarbiyachi ma'lum qiladi: Bugun bu yerda yangi magazin ochildi. (O'yin boshlaguncha narsalarni peshtaxtaga qo'yib, sotuvchi tayinlanadi). Kim magazinga borib, narsa sotib olsa, olgan narsasini bizga ko'rsatmaydi. Biz so'raymiz: «Nima sotib olding, bizga ko'rsat!» Bizga javob beradi: «Agar nimaligini topsalaring ko'rsataman». Bolalardan biri o'yinchoqni tanlab, so'zlay boshlaydi: Men tunda yoritadigan narsa sotib oldim. U metallardan, chirog'i qizil. Fonarcha, - deb topadilar bolalar. Birinchi xaridorni tarbiyachi tayinlaydi. Hamma bolalar do'konga orqa o'girib o'tiradilar, xaridor sotuvchiga xushmuomalalik bilan so'zlab, o'ziga yoqqan narsani so'raydi va tayoqcha bilan ko'rsatadi. Sotuvchi narsani xaltaga solib, xushmuomalalik bilan deydi: «Marhamat!». Xaridor sotuvchiga rahmat aytib xayrlashdi. «Vali nima olding?» deb so'raydilar. -Avval topinglar, keyin ko'rsataman, - deydi Vali, - men shunday kichkina narsa sotib oldim. Stadionda hakam uni o'zi bilan olib yuguradi, kim qoidani buzsa uni chaladi. - Hushtak! Ko'rsat! Vali olgan narsani ko'rsatadi va birinchi bo'lib javob bergan bola xaridor bo'ladi. Shunday qilib, o'yin uning hamma ishtirokchilari o'yinchoq sotib olguncha davom etadi. O'yinni tushuntirish bilan yakunlash mumkin: «Magazin tushlik vaqtida yopiladi». Bolalar o'yinchoqlarni o'ynaydilar, bir-birlari bilan almashtiradilar. O'yin uchun unutilgan o'yinchoqlarni qo'yish kerak. Tarbiyachi o'yinchoqlarni qanday o'ynash lozimligini eslatish mumkin. Masalan: «Vali! Xokkey o'ynaganlaringda endi sen hakam bo'lishing mumkin. Senda hushtak bor». Bolalar kim xokkey o'ynashni kelishib oladilar. «Mep esa aloqachi bo'laman. Menda fonarcha bor. Men kechasi ham dushmani ko'ra olaman. Kel, Sanjar aloqachilar bo'lib o'ynaymiz! Men senga ham fonarchamni berib turaman». Magazindan olingan narsani olish orqali bolalarda mustaqil o'ynash ko'nikmalari hosil bo'ladi.

3. «QO'G'IRCHOQNING YANGI UYI». Didaktik vazifasi: Umumtashgiruvchi so'zlar: mebel, kiyim, oyoq kiyimi, idish-tovoq, o'yinchoq kabilarni to'g'ri qo'llash va tushunishni mashq qildirishga, bolalarda ixtiyoriylilikni, o'yinchoqlarni ehtiyotlagani, tengqurlari bilan o'ynash istagini tarbiyalash.

O'yinning qoidalari: Yangi qo'g'irchoq yasaydigan xonaga aynan so'zga taalluqli bo'lgan narsalar olib kirishi kerak. Narsalarni biror narsaga solish yoki ma'lum joyga qo'yish.

O'yinning harakatlari: Xonani yangi qo'g'irchoq uchun jihozlash, kerakli narsalarni qidirish. O'yinning borishi: Tarbiyachi o'yin burchagini barcha o'yinchoqlardan holi qiladi va faqat polda gilamnigina qoldiradi. Hamma narsalar, o'yinchoqlar xonaning devori yonida bir chetda stolda turadi. - Bolalar, bugun biz yangi uyga ko'chamiz. «Rano degan qo'g'irchoq biznikiga keldi, biz uning xonasini

jihozlashga yordam berishimiz kerak. Kelinglar, yangi qo‘g‘irchoq bilan tanishaylik, - deya o‘yinni boshlaydi tarbiyachi. Bolalar qo‘g‘irchoqni ko‘radilar, o‘zlari tanishadilar. Tarbiyachi deydi: «Mana, endi, biz «Yangi uyga ko‘chish» o‘yinini o‘ynaymiz. Rano sizlarni qanday o‘ynay olishlaringni ko‘rib turadi. O‘yin qoidalari shunday: men narsalarni bir aytaman, sizlar esa kerakli narsalarni Ra‘no yashaydigan uyga olib kirasizlar. Hushyor bo‘linglar! Bizga uy jihozlari kerak bo‘ladi. Sevara, Yulduz. Mahliyolar boradilar va uy jihozlariga kiradigan hamma narsani olib keladilar, qolganlar esa tekshiradi: ular hammasini olib kelishganmi, yo‘qmi. Qizlar qo‘g‘irchoq mebelini gilam ustiga joylashtiradilar. Tarbiyachi davom etadi: - Endi, Vohid, G‘ani va Vali borib, idishlarni olib keladilar (ovqat va oshxona idishlarini). Bolalar idishlarni keltirib stolga qo‘yadilar. Hamma bu ishni batartib, bajarilishini kuzatib turadi. Oyoq kiyimlarini yana bir guruh bolalar olib keladi. Ra‘no biznikida yaxshi yashashi uchun yana nimalar olib kelish kerak? - O‘yinchoqlarni, ko‘p o‘yinchoqlarni, - deydi bolalar. Bolalar o‘yinchoqlarni olib kelib, gilamga, tokchaga qo‘yadilar. Bu o‘yinda umumlashtiruvchi tushunchalar. Mustahkamlanadi va muhimi, tarbiyachi bolalarni ijodiy o‘yinga tortadi: yangi kelganga g‘amxo‘rlik qilish, u bilan o‘ynash, unga yangi uy yasatish ko‘nikmasi tarbiyalanadi. O‘yinda ixtiyoriylik, batartiblik tartiblanadi. O‘yin burchagini o‘zi jihozlab olish ko‘nikmasi shakllantiradi.

4. «TIJORAT DO‘KONI» o‘yini. O‘yinni maqsadi: Reklama, do‘kon turlari, tijorat nima, ustama narx nima ekanini, muomala madaniyatini garbiyalat va savdo qilishga o‘rgatadi. Kerakli jihozlar: sovun, shampun, tish pastasi, soda, oziq-ovqat qog‘ozlari.

Yangi so‘zlar: tijorat, tanga, ustama haq, tijoratchi. O‘yinning borishi: «Gulruh» tijorat do‘koni. Peshtaxtaga chiroylik sovun, shampun, soda, tish pastasi, oziq-ovqat qog‘ozlari qo‘yiladi. Tijoratchi va oluvchi bo‘ladi. Hamma narsalar reklama tarzida chiroyli qilib teriladi. -Assalomu alaykum, onajon. Menga ana u sovuningizni ko‘rsatib yuboring. Xo‘p bo‘ladi. Bu pecha pul turadi? Unisi-chi? Unisi 10 so‘m, bunisi 25 so‘m? Nimaga unisi 10 so‘m, bunisi 25 so‘m, onajon? 25 so‘mli import. Turkiyadan keltirilgan. Chet eldan samolyotda olib kelingan. Shuning uchun 25 so‘mdan sotiladi. 10 so‘mli esa o‘zimizniki. So‘ngra boshqa xaridorlar ham so‘raydilar: «Menga bitta vafli bering». «Menga 2 ta ro‘molcha». «Menga bitta yaxshi tish pastasi bering». «Tayyor kuylaklarning menga loyig‘i bormi?». «Hozir qarab ko‘raman», «Mana, sizga loyig‘i ham bor ekan», «narxi uncha qimmat emas», «juda chiroyli va chidamli matodan tikilgan» kabi javoblar bilan sotuvchi xaridorlar ko‘pligini olishga harakat qiladi.

5. «BANK» o‘yini. O‘yinning maqsadi: Bank haqida bolalarga tushuncha berish, u yerda amalga oshiriladigan ishlar va u yerda kimlar mehnat qilgani, so‘m nimaligi, pul muomala vositasi ekanini o‘rgatish, bankni qattiq nazorat qilinganini tushuntirish.

Kerakli jihozlar: milisioner ustboshi, 2 ta oynakchali moslama, kartondan yasalgan pullarining qiymati yozilgan kartochkalar.

Yangi soʻzlar: bank, hisobchi, soʻm, pul, chek, valyuta, dollar. Oʻyinning borishi: Xazinani kirish eshigi oldida milisioner turadi. Ichkarida esa 2 ta xona va xushtag oynakchasi bor. U erda ikkita hisobchi oʻtiradi. Bolalardan biri birinchi kassa-tuynukchaga yaqinlashadi va «Onajon, bogʻcha bolalarining toʻlov pulini qabul qilib oling» deydi. Xazinachi «Pullarni kirim qildingmi?» deb soʻraydi. Bola «Yoʻq» deb javob beradi. «Pullarni bir xil qilib taxlang». Mijoz-bola pullarini 2000, 5000, 10000 soʻmlik qilib taxlaydi. Soʻngra xazipachiga uzatadi. Ikkinchi kassa-tuynukka yana boshqa bola borib: «Ona, 2000 soʻm pulim yirtilib ketdi, uni nima qilsam boʻladi?» deb soʻraydi. Xazinachi «Pulingiz yirtilgan boʻlsa, biz almashtirib beramiz» deya oladi va bolaning qoʻliga butun 2000 soʻmlik beradi. Yana bir mijoz tashkilot xaznachisi sifatida ishchilar uchun ish haqi olishligini aytib, ikkinchi kassaga murojaat qiladi va pul oladi. Soʻngra bankdan chiqib ketiladi. Oʻyinning 2-qismida pullar miqdori yozilgan kartochkalarni har xil joylarga tarqatib qoʻyilgan boʻladi. Bolalar pullarni bir xil qilib (soʻm) qilib tahlaydilar.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllanishida milliy oʻyinlar benihoya muhim rol oʻynaydi. Bola albatta oʻyinni oʻynab oʻzgalar bilan muomila munosabatiga kirishadi. Hatto kattalar bilan ham oʻyin oʻynash orqali oʻz fikr mulohazalarini bemalol ayta oladi. Shu sababdan bugungi kunda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida turli xil bola sogʻligiga zarar yetkazmaydigan milliy oʻyinlar texnologiyasi qoʻllanib borilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar entsiklopediyasi. 2-nashr. –T. “Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. 2002. -664 b.
2. R.M.Qodirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Qoz.,Sariogʻoch, 1998.
3. F.R. Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni oʻzbekcha soʻzlashishga oʻrgatish» (metodik qoʻllanma). Toshkent, «Oʻqituvchi», 1997.
4. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.
5. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni oʻrgatish metodikasi». T., «Sano-Standart», 2004.